

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDAGI SHAXS MA’NAVIYATINING SHAKLLANGANLIK DARAJASI

Mamanazarov Solijon Sherzodbek o‘g‘li

A.Navoiy nomli davlat stipendiyasi sohibi(2023-2024-yy)

Muxammadiyev Jamshid Ilhom o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya,
Ma’naviyat asoslari va huquq talimi yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimidagi shaxs ma’naviyatining shakllanganlik darajasi xaqida so‘z yuritiladi. Uzluksiz ta’lim konsepsiyaning o‘ziga xos xususiyati haqida ham malumot beriladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim tizimi, shaxs ma’naviyati, ma’naviyat muammolari, shaxsni tarbiyalash.

XXI asr jamiyat tarixiga ma’naviyat muammolariga ustuvor ahamiyat beriladigan davr bo‘lib kirib keldi. Ma’naviyat inson, insoniyatning butun faoliyati taraqqiyotini hal qiluvchi omilidir. Ma’naviyat muammolariga e’tibor bermay insonning mohiyatini ham, jamiyat taraqqiyotining darajasi, sabablari va istiqbolini ham tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlab o‘tganidek: “Ma’naviyatda insonning iymon, axloqi, hayotining ma’nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo‘ladi. Vatan, xalq oldidagi burchini anglash ham yuksak ma’naviyat belgisidir. Ma’naviy barkamol inson - o‘zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi”. Buning ma’nosi - xalqi ma’naviy jihatdan qashshoq bo‘lgan mamlakat iqlim sharoitlari yaxshi, tabiiy boyliklari ko‘p bo‘lsa ham hech qachon buyuk davlat darajasiga ko‘tarila olmaydi.

Hozir xalqning ma’naviyatini yuksaltirish, ta’lim – tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirib, odamlarning manfaatdorlik bilan bog‘langan ijodiy mehnatini kuchaytirib, O‘zbekistonni jahondagi rivojlangan boy davlatlardan biriga aylantirish millatimizni, mamlakatimizda yashaydigan barcha fuqarolarni birlashtiradigan milliy idealdir. Bu milliy idealni amalga oshirish yo‘llari haqidagi turli xolis qarashlar ham o‘ziga xos ideal sifatida talqin etilishi mumkin. Milliy idealni amalga oshirish muammolariga oqilona va odilona, umummilliy manfaatlar, jahon hamjamiyati mustahkamlanib borayotgan hozirgi sharoitda esa umumiyy manfaatlar va maqsadlar bilan bog‘liq ravishda yondoshmoq kerak. Buning

uzluksiz ta’lim tizmida shaxs ma’naviyatini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish va uni uzluksiz ta’lim tizimiga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Uzluksiz ta’lim tizimi – yagona ta’lim tizimi, ta’limni shaxs ijodiy imkoniyatlarining muntazam rivojlanishini ta’minlovchi bir umrlik jarayon sifatida talqin etiladi va uning ma’naviy dunyosini har tomonlama boyitadi. Tizim shaxsning rivojlanish jarayonini, “pillapoya” tarzida uning qaror topishining imkonini beradi, “pillapoya”ning har bir pog‘anasi insonning o‘z ta’lim jarayonida yanada yuqori darajada erishishga tomon tadrijiy harakatini anglatadi. Uzluksiz ta’lim – inson butun hayoti mobaynida olishi mumkin bo‘lgan ta’lim. Uzluksiz ta’lim deganda, uning rivojlanishi tugamasligi, tadrijiy bog‘liq bo‘lgan bir necha bosqichlarga bo‘linishi, har bir bosqich yangi, ancha yuqori darajadagi bosqichga o‘tish uchun imkon yaratishi tushuniladi”.

“Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi: fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi; ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi”.

Ma’naviyatli shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo‘yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylashtirishdan iborat bo‘lib, bo‘lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustivor bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda tarbiyaviy ishlar rejalari, ma’aviyat asoslari va milliy g‘oya turkumidagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta’lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish bilan birga, shuningdek, texnika fanlarida ham tahlil etib ko‘rsatib berishni, talaba yoshlarni o‘qitish orqali ma’naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi. Umuman talim tizimida o‘tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma’naviy-ahloqiy ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e’tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, O‘quv dasturlarining, darslik va qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta’limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o‘quv dasturlari tayyorlashda ta’limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya’ni yosh mutaxassislarning ma’naviy-ahloqiy jihatdan ma’naviyatli shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta’minlashga katta e’tibor berilishi zarurligi angladik.

Shaxsning ma’naviy, ruhiy kamoloti ta’minlanmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama bo‘ladi va kutilgan natijani bermaydi. Shaxs ma’naviyati yoshlar qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, ularning umuman millatning ruhiy-ma’naviy rostlanishiga yordam berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Inson baxt uchun tug‘uladi.” O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning hikmatli so‘zlaridan. -T.: «Sharq» nashriyot – matbaa konsernining bosh tahririyati, 1998
- 2.Xamdamova M. Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasi. Monografiya. – T.: O‘z.Res. FA “Fan” nashryoti, 2008
- 3.Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. “Sharq” nashryoti, Toshkent, 1997
4. V.P.Tugarinov “O sennostyax jizni i kultury” Moskva, 1980 g.
- 5.Xamdamova M. Uzluksiz ta’lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasi. Monografiya. – T.: O‘z.Res. FA “Fan” nashryoti, 2008.
- 6.Nigmanova Umida Baxramovnaning “Uzluksiz ta’lim tizimida shaxs ma’naviyatini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi – TDPU-2013